Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024-yil 3-dekabr, № 250 (8873) Seshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

O‘ZGARISHLARGA MOSLASHUVCHANLIK VA TASHABBUSKORLIK ZARUR

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2-dekabr kuni metallurgiya korxonalarining transformatsiya dasturlari hamda 2025-yilgi rejalari bilan tanishdi.

So‘nggi yetti yilda bu sohada ishlab chiqarish 1,5 barobar o‘sgan. Xususan, yillik oltin qazib olish hajmi 2016-yildagiga nisbatan 26 tonnaga, kumush 77 tonnaga, mis 32 ming tonnaga oshgan.

Oxirgi besh yilda tog‘-kon va metallurgiyaga qariyb 9,5 milliard dollar investitsiya jalb qilinib, 15 ta yirik loyiha ishga tushirildi. Natijada bu soha iqtisodiyotni transformatsiya qilishda eng muhim drayverga aylanmoqda. Mamlakatimiz sanoati hajmining uchdan biri uning hissasiga to‘g‘ri kelyapti.

Tog‘-kon sanoati elektrotexnika, qurilish materiallari, kimyo, zargarlik kabi tarmoqlar uchun xomashyoni ko‘paytirib, ularning o‘sishiga katta turtki beryapti. Shuningdek, kombinatlar 60 dan ortiq kichik va o‘rta korxonalar bilan kooperatsiya asosida yaqindan ishlayapti.

Bularni davom ettirib, iqtisodiy samaradorlikni oshirib borish – zamon talabi. Tarmoq korxonalarini jahon moliya bozorida jozibador kompaniyalarga aylantirish kerak.

Yig‘ilishda Tog‘-kon sanoati va geologiya vaziri hamda kombinatlar rahbarlari shu boradagi rejalar bo‘yicha axborot berdi.

Jumladan, 2025-yilda tog‘-kon va geologiya sohasidagi loyihalarga 1 milliard dollar investitsiya jalb qilish ko‘zda tutilmoqda. Kaolin ishlab chiqarishni 50 foiz oshirish, ko‘mir qazib olishni 10 million tonnaga yetkazish mo‘ljallanmoqda.

Navoiy tog‘-metallurgiya kombinati bu yil ilk bor xalqaro bozorda yevrobond joylashtirib, 1 milliard dollar arzon resurs jalb qildi. Kelgusi yil yana 500 million dollar yevrobond chiqarish rejalashtirilgan.

Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida 3-mis boyitish fabrikasi hamda O‘zbekiston metallurgiya kombinatida yangi quyuv prokatlash majmuasi ishga tushiriladi. O‘zbekiston texnologik metallar kombinatida “yashil” iqtisodiyot uchun muhim bo‘lgan noyob metallar xomashyosi kengaytiriladi.

Davlatimiz rahbari kelgusi yilda kombinatlar transformatsiya orqali dunyo bozorida raqobatdoshligini oshirish bo‘yicha katta o‘zgarish qilishi zarurligini ta’kidladi.

Bunda tannarxni tushirish, faoliyatni to‘liq raqamlashtirish, xalqaro bozorlardan mablag‘ olib kelish, yangi texnologiyalarni joriy qilib, ish jarayonini avtomatlashtirish eng muhim vazifalar ekani ko‘rsatib o‘tildi.

Korxonalar jahondagi o‘zgarishlarga tez moslashib, yangi tashabbuslar ko‘rsatishi zarurligi aytildi. Tejamkorlik va samaradorlik tamoyili asosida xarajatlarni kamaytirish, sanoat tarmoqlarini xomashyo bilan uzluksiz ta’minlash choralari belgilandi.

O‘zA.

8-dekabr – O‘zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilingan kun

KONSTITUTSIYA – HUQUQ VA ERKINLIKLARIMIZNING MUSTAHKAM KAFOLATI



Bu yil mustaqil davlatimiz Konstitutsiyasi qabul qilinganining 32 yilligini nishonlaymiz. Asosiy qomus milliy davlatchiligimiz, suverenitetimiz, erishilgan barcha yutuq va marralar, demokratik huquqiy davlat barpo etish yo‘lidagi sa’y-harakatlarning mustahkam poydevori hisoblanadi.

Albatta, mazkur ayyom ijtimoiy-siyosiy hayotimizda, mamlakatimiz rivojida alohida ma’no-mazmunga ega. Bu, eng avvalo, 2023-yil 30-aprelda milliy tariximizda birinchi marta umumxalq referendumi asosida Konstitutsiyamiz yangi tahrirda qabul qilingani bilan bog‘liq, desak, yanglishmagan bo‘lamiz.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning O‘zbekiston taraqqiyotidagi beqiyos ahamiyatini yuksak qadrlaymiz. Xususan, Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi – ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilab berildi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi. Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Bugungi kunda yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida amalga oshirilayotgan barcha islohotlarda qonun ustuvorligini ta’minlash hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Chunonchi, qonun hukmron bo‘lgan jamiyatda, albatta, adolat, siyosiy-ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy o‘sish va yuksalish bo‘ladi, inson qadri, huquq va manfaatlari ta’minlanadi.

Hech shubhasiz, xalqchil qomus bo‘lgan Asosiy Qonunimiz Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar ortga qaytmasligining, qonunlar ustuvorligining mustahkam huquqiy kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatchilik, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-iqtisodiy va sud-huquq sohalarini bundan keyin ham barqaror rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi. Mamlakatimizda 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni yoqlab ovoz bergani ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi, shu bilan bir qatorda, Bosh qomusimizda xalqimizning yangi O‘zbekistonni barpo qilish bo‘yicha orzu-umidlari va intilishlari o‘z aksini topganini ifoda etadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 7-moddasi birinchi bandida “Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai”, degan me’yor belgilab qo‘yilgan. Bu norma timsolida jahon miqyosida umume’tirof etilgan xalq hokimiyatchiligi prinsipi, ya’ni xalq suverenitetning asoschisi va davlat hokimiyatining yagona manbai ekanini anglatuvchi tamoyil mustahkamlab qo‘yilgan.

Shundan kelib chiqib keyingi yillarda mamlakatimizda yangi O‘zbekiston – inson sha’ni va qadr-qimmati, huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari oliy qadriyat hisoblangan davlat bo‘lishi, xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi, “odamlar tashvishi bilan yashash”, barcha muhim qarorlar aholi ishtirokida, fuqarolik jamiyati institutlari bilan maslahatlashuv asosida qabul qilinishi kabi prinsip va g‘oyalarni hayotga tatbiq etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Demokratiyaning talabu taomili va ustunligi ham shunda.

Bunda qonun chiqaruvchi va ijro organlaridan inson huquqlarini ta’minlash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlament va siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish; hokimiyat tarmoqlarini tiyib turish va muvozanatni saqlashda parlament rolini oshirish; davlat xizmatlari sifati va samaradorligini yaxshilash, davlat organlari faoliyatining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda parlament va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalga tatbiq qilish masalalariga alohida e’tibor qaratish talab etiladi.

➡3

MAHALLIY KENGASHLAR CHIN MA’NODA “XALQ UYI”GA AYLANADI

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi raisi A. Eshmuratov xalq deputatlari Sherobod tumani Kengashi deputatlari bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Muloqot

Unda tuman Kengashi deputatlari, sektor rahbarlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi.

Qayd etilganidek, Prezidentimiz Oliy Majlis yuqori palatasining birinchi yalpi majlisida senator va mahalliy Kengashlar deputatlarining o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatiga atroflicha to‘xtalib, qonunlarni parlament qo‘mitalarida ko‘rib chiqishda, vazirlik va idoralar vakillari bilan emas, balki mahalliy Kengashlar deputatlari bilan ko‘proq ish olib borishi kerakligiga alohida urg‘u berdi. Bu esa senatorlar va mahalliy Kengashlar deputatlari faoliyatini yangicha yo‘lga qo‘yishni taqozo qiladi, albatta. Qolaversa, ularning o‘zaro hamkorligi hududlar manfaatiga mos keladigan qonunlarni ishlab chiqish hamda ularning ijrosini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, yangi tarkibda shakllangan mahalliy Kengashlar deputatlari yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga xizmat qiladigan ustuvor vazifalar ijrosida jonbozlik ko‘rsatishi talab etiladi. Bu, pirovardida mahalliy Kengashlarni chin ma’noda “xalq uyi”ga aylantirish imkonini beradi. Albatta, bu oson hal bo‘ladigan masala emas. Buning uchun deputatlar faollikni oshirishi, deputatlik va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishi hamda mahalliy ijro organlari bilan samarali muloqotni yo‘lga qo‘yishi kerak bo‘ladi.

Muloqot davomida Kengashlarning doimiy komissiyalari, shu jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha komissiyalari hududiy ijro hokimiyati bilan yaqindan hamkorlik qilishi, aholi bilan bevosita muloqotda bo‘lishi va ularning muammolarini joyida hal etishi zarurligi uqtirildi.

“Xalq so‘zi”.

Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

QAT’IY POZITSIYAGA EGALIK VA MAS’ULLIK HISSI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida haftaning ilk kuni dolzarb qonun loyihalari muhokamalaridan boshlandi. Mamlakatimizning asosiy moliyaviy hujjati,sudlar mustaqilligi kafolati,2025-yilgi soliq siyosatiga oid qonun loyihalari siyosiy partiyalarning quyi palatadagi fraksiyalari yig‘ilishlarida atroflicha ko‘rib chiqildi. Palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan ushbu hujjatlardagi barcha normalarga deputatlar tomonidan mas’ullik bilan yondashilib,ularni yanada takomillashtirish yuzasidan muhim taklif va tavsiyalar ilgari surildi.

Jamoat fondiga qo‘shimcha mablag‘ ajratiladigan bo‘ldi



Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida Prezidentimiz raisligida shu yil 28-noyabr kuni meva-sabzavot yetishtirish, qayta ishlash va eksportini ko‘paytirish chora-tadbirlari yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ilgari surilgan muhim tashabbuslar, belgilab berilgan chora-tadbirlarning ahamiyati haqida so‘z yuritildi.

Fraksiya a’zolari yig‘ilishda qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishda barcha yo‘nalishda yanada faollik ko‘rsatish, aholi bilan muntazam ishlash bo‘yicha majburiyatlarni aniq belgilab oldilar.

Shundan so‘ng “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

Munozaralar davomida deputatlar bosh moliyaviy hujjat loyihasini qizg‘in muhokama qilib, qator takliflarni ilgari surdilar. Xususan, bildirilgan taklifga muvofiq og‘ir vaziyatga tushgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni aniqlash va yordam ko‘rsatish uchun Bolalarni qo‘llab-quvvatlash jamoat fondiga qo‘shimcha mablag‘ ajratilishi bo‘yicha fraksiyaning taklifi ma’qullangani ijobiy baholandi.

Yig‘ilishda 2025-yil uchun Davlat byudjeti qabul qilinishi munosabati bilan Soliq va Byudjet kodekslariga qo‘shimcha kiritish, xususan, “O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ham qizg‘in muhokamadan o‘tkazildi.

➡2

Bugun – Xalqaro nogironlar kuni

MATONAT SOHIBLARI

XALQIMIZ E’TIBORIDA, DAVLATIMIZ HIMOYASIDA

Mamlakatimizda inson qadri,uning huquq va manfaatlarini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi etib belgilangan. Odamlarning dardini tinglash, o‘rganish,ularga o‘z vaqtida yechim topish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Jumladan,alohida ehtiyojli,ko‘ngli yarim hamyurtlarimizni o‘ylantirayotgan muammolarni o‘rganish,ularga tezkor,oqilona,o‘z vaqtida to‘g‘ri yechim topish,turmush sharoitlarini yaxshilash masalalariga amaliy yondashishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Nogironligi bo‘lgan yurtdoshlarimizning jamiyatga integratsiyalashuvini ta’minlash,ular uchun zarur sharoitlarni yaratish masalasi qog‘ozda emas,amalda o‘z ifodasini topmoqda.

➡3

BUYUK TARIXIY VOQELIK HAQIDA DADIL FIKR

Germaniyalik taniqli siyosiy sharhlovchi,“Berliner Zeitung” nashri Geosiyosat bo‘limi rahbari Tomas Fasbenderning o‘zbekistonlik mashhur siyosatshunos Qudratilla Rafiqov bilan suhbatini o‘qidim. Juda jiddiy va nufuzli jurnalning siyosiy sharhlovchisi bilan o‘ta muhim muloqot bo‘libdi.

Suhbatning mavzusi ham nihoyatda salmoqli va mazmuni behad qiziqarli. Yanada muhimi,suhbat yangi O‘zbekiston jamiyati va davlati,shu aziz Vatanda yashayotgan har bir insonning hayotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri daxldor,ta’bir joiz bo‘lsa,har birimizning jon-jonimizga bog‘langan taqdirulamal masalalar tahliliga bag‘ishlangan.



Aks sado

Intervyuning sarlavhasi xususida

Taniqli siyosatshunos Qudratilla Rafiqovning germaniyalik mashhur siyosiy sharhlovchiga bergan intervyusini ommabop va hammaga tushunarli tilda tayyorlangan qiziqarli ilmiy-publitsistik chiqish, deb baholash mumkin. Bu bahoni tasdiqlaydigan o‘ziga xos mezonlar bor, albatta.

Xususan, intervyuning sarlavhasiyoq g‘oyat o‘ziga xos. Ya’ni: **“O‘zbekistondan “Yangi O‘zbekiston”gacha: yo‘qotilgan qalbni izlab...”**. Ayni sarlavhani o‘qiganimda mashhur o‘zbek shoiri **Sadriddin Salim Buxoriy** (1946 – 2010) qalamiga mansub “Buxoroga Buxoro keldi”, degan misra yodimga tushdi.

Mustaqillik tufayli orzu-armonlari ushalganidan, jumladan, sho‘rolar davri qatag‘oni sabab tashlandiq ahvolga kelib qolgan ulug‘ allomalar yurti Buxoroning tarixiy yodgorliklari ham yana munosib qadr topganidan behad quvongan ushbu shoir va alloma 1999-yilda **“Buxoroga Buxoro keldi”** she’rlar turkumini nashr ettirgandi. O‘sha kitobdan el orasida dong qozongan mana bu misralar ham joy olgan:

Buxoroga nur-ziyo keldi,
Imon keldi, sharm-hayo keldi.
Buxoroni zulmat etdi tark,
Buxoroga Buxoro keldi...

Shoirlikka hech qanday da’vomiz yo‘q. Ammo oqil siyosatchi va hassos shoirlar rag‘bat berganida, kamina ham jim qarab turolmadi. Ushbu misralarni shu rag‘batning hosilasi sifatida qabul qilgaysiz:

Dovon ortda qolib, dovon kelmoqda,
Ruhga ruh qo‘shguvchi zamon kelmoqda.
Yangi marralarga yangi kuch berib,
Yangi O‘zbekiston ravon kelmoqda!

Aytmoqchimizki, Qudratilla Rafiqov intervyusining, hatto nomlanishiga ham chuqur adabiy-badiiy mohiyat va nihoyatda o‘zbekona ruh singdirilgan.

Ya’ni **“O‘zbekistondan “Yangi O‘zbekiston”gacha”** – o‘zbek siyosatshunosi birgina shu jumla bilan yangi O‘zbekistonga o‘ziga xos tarzda ta’rif bergan. Yanada aniq qilib aytganda, **ta’riflarga sig‘maydigan buyuk tarixiy voqelik ta’rifsiz ta’riflangan.**

Jurnalist intervyu so‘ngida shunday deydi: **“Ayniqsa, menga “Yo‘qotilgan qalb” haqidagi izohingiz juda yoqdi”**. Germaniyalik siyosiy sharhlovchining bunday e’tirofi atoqli qirg‘iz adibi **Chingiz Aytmatov**ning hayotiy falsafasi bilan yo‘g‘rilgan **“manqurt nazariyasi”**ni esga soladi. Haqiqatan ham, **“Qalbni yo‘qotish – ma’naviy manqurtlikdir!”**

Shu haqda o‘ylar ekanman, intervyu sarlavhasining o‘zi ham nainki milliy ruh, balki umuminsoniy mazmun-mohiyat kasb etadi, degan fikr o‘tdi xayolimdan.

Yangi Markaziy Osiyo taraqqiyoti va dog‘da qolgan G‘arb siyosatshunoslari

Intervyu matni tahliliga o‘tsak: jurnalist atigi 8 ta savol bergan bo‘lsa-da, savollar mazmunan turlicha va ularning har biri juda keng mavzularni qamraydi. Savollar bir tomondan, ham aniq, ham siyosiy dolzarb, G‘arb o‘quvchisini o‘ylantiradigan mazmunda bo‘lsa, ikkinchi tomondan, xuddi shu jihatlari bilan o‘zbek siyosatshunosiga munosib javoblar qaytarish uchun ilhom hamda jo‘shqinlik baxsh etgan, nazarimizda.

Suhbatning o‘q ildizini yangi O‘zbekistonning uzoq va yaqin o‘tmishi hamda buguni va kelajagi haqidagi o‘y-mulohazalar tashkil qiladi. Bu boradagi fikrlar Markaziy Osiyo mintaqasida kechayotgan tarixiy-siyosiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liqlikda talqin etilgan.

➡2

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 3-dekabr

JAMIYATNING BARCHA QATLAMI MANFAATLARI INOBATGA OLINGAN

Tarixga nazar tashlasak,istiqlol yillarida mamlakatimiz mustaqil davlat sifatida shakllanib, o‘zining yangi huquqiy tizimini yaratdi. 1992-yil 8-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi o‘n birinchi sessiyasida qabul qilingan Konstitutsiya mustaqillikning huquqiy poydevori sifatida xalqimiz uchun muqaddas va muhim hujjatga aylandi. Boisi Bosh qomusimiz ko‘p asrlik milliy an’analarimiz,boy tarixiy merosimiz va ma’naviy qadriyatlarimizni o‘zida aks ettirgan holda ishlab chiqilgan. Eng muhimi, uning asosiy maqsadi inson qadr-qimmatini,uning hayoti,erkinliklari va huquqlarini himoya qilishdan iboratdir.

Mushohada



Ma’lumki, yurtimizning jahon hamjamiyatiga to‘laqonli ravishda yuz tutishi, shiddat bilan olib borilayotgan islohotlar Asosiy Qonunimizni yanada takomillashtirish, xalqchil manbaga aylantirish zaruriyatini yuzaga keltirdi va 2023-yil aprel oyida yuqori saviyada o‘tkazilgan umumxalq referendumida yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilindi.

E’tiborlisi, unda jamiyatning barcha qatlami manfaatlari inobatga olingan bo‘lib, yangi O‘zbekistonni barpo etish g‘oyasi o‘z ifodasini topgan. Bu o‘zgarishlar nechog‘li ahamiyatga egaligini uning haqiqiy xalq Konstitutsiyasi o‘laroq jamiyatimizdagi barqarorlik va taraqqiyot uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qilayotgani misolida ham ko‘rib turibmiz.

Ijtimoiy davlat tamoyilining ilk bor konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangani muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta’kidlash zarur. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada kambag‘allikni qisqartirish, aholi bandligini ta’minlash borasida davlat zimmasiga qator yangi majburiyatlar yuklatildi. Davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog‘liq normalarning uch barobar ko‘paytirilishi bu boradagi ustuvorlikni yanada oshirdi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shuningdek, oliy ta’lim sohasida akademik erkinlik, mustaqil boshqaruv va tadqiqotlar o‘tkazish imkoniyatlarini mustahkamlash bilan bog‘liq normalar bor. Bu me’yorlar professor-o‘qituvchilar va talabalarning ta’lim jarayonidagi mustaqilligini ta’minlash uchun xizmat qilmoqda. Keyingi yillarda yurtimizda ko‘plab nodavlat oliy ta’lim muassasalari tashkil etilishi va xorijiy universitetlar filiallari soni sezilarli darajada oshishini ham shu bilan izohlash mumkin. Qolaversa, qator davlat oliy o‘quv yurtlariga akademik va moliyaviy mustaqillik berildi. Bunday islohotlar ta’lim sohasida ijtimoiy davlatga xos yondashuvlarning amaliy tasdig‘i sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Fuqarolarning oliy ta’lim muassasalarida davlat granti hisobidan ta’lim olish huquqining mustahkamlangani ham muhim ahamiyatga ega. Agar 2017-yilgacha davlat grantlari soni yil sayin qisqargan bo‘lsa, oxirgi yetti yil davomida bu ko‘rsatkich ikki barobar oshdi. Magistratura yo‘nalishi bo‘yicha esa grantlar soni besh barobar ko‘paydi. Davlat oliy ta’lim muassasalarining magistratura bosqichida o‘qiyotgan barcha xotin-qizlarning shartnoma to‘lovlarini Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplab berish mexanizmi joriy etildi.

Nogironligi bor bolalar uchun ham teng imkoniyatlar yaratish maqsadida inklyuziv ta’lim normalari Konstitutsiyada o‘z aksini topdi. Bu, o‘z navbatida, ular jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida shakllanishi uchun zarur sharoitlarni kafolatladi.

O‘qituvchilar sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy farovonligini oshirish hamda kasbiy rivojlanishi bo‘yicha davlat majburiyatlari kuchaytirilishi ham e’tiborga molik. Bugungi kunda o‘qituvchilarning ijtimoiy maqomini yanada oshirishga qaratilgan bunday yondashuvlar ularning jamiyatdagi obro‘-e’tiborini ko‘tarishda muhim qadam sanaladi.

Asosiy Qonunimiz xalqimiz hayotining barcha jabhasida inson qadrini ulug‘lash g‘oyasiga asoslangan. Buni hayotga tatbiq etish orqali biz Konstitutsiyamizdagi normalarni amalda ijtimoiy adolatni ta’minlash, qonun ustuvorligini mustahkamlash hamda inson huquqlari himoyasini ta’minlash maqsadlariga qaratib, yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida dadil qadam qo‘ymoqdamiz.

Konstitutsiya – bu inson qadri va erkinliklarini himoya qiluvchi mustahkam qalqon, xalqning orzu-intilishlari aks etgan buyuk qomus. Uning ahamiyatini tushunish, unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish har birimizning burchimiz. Bu yo‘lda hamjihatlikda ishlab, har bir qonun normasini hayotga tatbiq etishdagi mas’uliyatni chuqur anglashimiz lozim. Bu nafaqat davlat idoralari va qonun chiqaruvchilar, balki fuqaro sifatida har birimizning vazifamizga aylanishi ayni zarurat.

Bizning oliy maqsadimiz Konstitutsiyaning nafaqat qonun sifatida ustuvorligini ta’minlash, balki uni xalqimiz hayotining ajralmas qismiga aylantirishdir. Asosiy Qonun ruhini har bir fuqaro qalbiga singdirishga erishish zarur ahamiyatga ega. Zero, Konstitutsiya nafaqat huquqiy hujjat, balki davlat va jamiyat hayotining asosiy tamal toshi, adolatli, erkin va barqaror taraqqiyotga yo‘naltiruvchi mustahkam huquqiy asosdir.

Gulnora MA’RUFOVA,
Oliy Majlis Senatining Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasida doimiy asosda ishlovchi senator.

QAT’IY POZITSIYAGA EGALIK VA MAS’ULLIK HISSI

1

Ushbu qonun loyihasi bilan Soliq kodeksiga shaharlarning ma’muriy chegaralarida joylashgan tumanlarida qishloq xo‘jaligi yerlari uchun yer solig‘ini 2 baravar ko‘p miqdorda to‘lash talabini bekor qilishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish kiritilayotgani qayd etildi.

Muhokama davomida deputatlar loyihada nazarda tutilayotgan ayrim normalar bo‘yicha qonun tashabbuskorlarini savolga tutishdi. Ko‘tarilgan masalalar yuzasidan batafsil tushuntirish berib o‘tildi.

Deputatlarning ta’kidlashicha, ushbu qonun loyihasi shahar va shaharchalarning ma’muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlari mavjud korxonalar faoliyatini yanada yaxshilash uchun qulay shart-sharoit yaratishga xizmat qiladi. Shular e’tiborga olingan holda qonun loyihasi yakdillik bilan qo‘llab-quvvatlandi.

Ta’lim, turizm, tibbiyot bilan bog‘liq takliflar e’tiborga olingan

O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida 2025-yil uchun Davlat byudjeti to‘g‘risidagi qonun loyihasi atroflicha muhokama qilindi.

Deputatlar qonun loyihasini ko‘rib chiqish jarayonida bir qator takliflarni ilgari surishdi. Jumladan, ta’lim-tarbiya, ilm-fan, madaniyat va san’at rivoji, tarixiy obidalarni asrab-avaylash, xorijda ta’lim olayotgan yoshlarni hamda mehnat bilan band bo‘lgan vatandoshlarimizni qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilayotgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, ularning natijadorligini ta’minlashga oid fikrlar bildirildi.

Hukumat vakillari Byudjetnomaning birinchi muhokamasida ham mazkur fraksiya a’zolari tomonidan ta’lim, turizm, tibbiyot bilan bog‘liq takliflar o‘rtaga tashlanganini e’tirof qilib, ularning ayrimlari ikkinchi o‘qishda e’tiborga olinganini qayd etdi.

Muhokamadan so‘ng deputatlar byudjet ijrosini nazorat qilishni yanada kuchaytirish, ajratilayotgan mablag‘ning maqsadli va samarali sarflanishi bo‘yicha mas’uliyatni yanada oshirish lozimligini ta’kidlab, qonun loyihasini qo‘llab-quvvatlashdi.

Yig‘ilishda “Sudyalarning o‘zini o‘zi boshqarish tamoyili joriy etilayotganligi munosabati bilan “Sudlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 19-moddasiga o‘zgartirish kiritish haqida”gi qonun loyihasi ham ko‘rib chiqildi.

Bugungi kunda sud hokimiyati mustaqilligini ta’minlash orqali sudyalarning o‘zini o‘zi boshqarish tamoyilini sudlar faoliyatiga keng joriy etish zarurati vujudga kelayotgani ta’kidlandi. Shundan kelib chiqib, mazkur qonun loyihasida Oliy sud tarkibining sudlov hay’atlari raislari bilan bog‘liq o‘zgartirish nazarda tutilmoqda.

Muhokama davomida deputatlar qonun loyihasining ahamiyatiga alohida to‘xtalib, unda nazarda tutilayotgan ayrim normalar bo‘yicha aniqlashtiruvchi savollar berishdi. Qonun tashabbuskorlari ko‘tarilgan savollar yuzasidan atroflicha tushuntirish berib o‘tdi.

Fraksiya a’zolari mazkur qonun loyihasi sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga, odil sudlov sifatini yuksaltirishga xizmat qilishini e’tiborga olib, uni qo‘llab-quvvatladi.

Sudlar faoliyatiga oid konstitutsiyaviy kafolatlar kuchaytirilmoqda

“2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonun loyihasi muhokamasida **O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi** a’zolari, asosan, ijtimoiy sohaga yo‘naltirilayotgan mablag‘lar hamda aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgan maqsad va vazifalarga e’tibor qaratdi.

Deputatlar tomonidan berilgan aksariyat takliflar loyihani ikkinchi o‘qishga tayyorlash jarayonida e’tiborga olingani alohida qayd etildi.

Qonun loyihasida nazarda tutilayotgan ayrim yangiliklar bo‘yicha fikr-mulohazalar, taklif va tavsiyalar bildirildi. Qizg‘in muhokamadan so‘ng qonun loyihasi



deputatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

“Sudlarning faoliyatiga oid konstitutsiyaviy kafolatlar kuchaytirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ham muhokama markazida bo‘ldi.

Ushbu qonun loyihasi bilan “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonun Sudyalar oliy kengashi tarkibi, shu jumladan, kengash raisi, rais o‘rinbosari, uning a’zolari va kotibi Prezident taqdimiga binoan Oliy Majlis Senati tomonidan saylanishi, shuningdek, ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq Sudyalar oliy kengashining raisi, rais o‘rinbosari etib saylanishi mumkin emasligi haqidagi norma bilan mustahkamlanmoqda.

“Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunga kiritilayotgan qo‘shimchaga binoan odil sudlov faqat sudlar tomonidan amalga oshirilishi belgilanyapti. Shuningdek, shaxslarning nafaqat davlat organlari, balki boshqa tashkilotlarning ham qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi mustahkamlanmoqda.

Fraksiya a’zolari qonun loyihasini ko‘rib chiqish chog‘ida partiya saylovoldi dasturidan kelib chiqib, loyihani yanada takomillashtirish, pishiq-puxta holatga keltirish bo‘yicha o‘z takliflarini berdi. Undagi ayrim normalar bo‘yicha ko‘tarilgan savollarga esa tashabbuskorlar tomonidan atroflicha javob qaytarildi.

Savol-javoblardan so‘ng qonun loyihalari deputatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Asosiy soliq stavkalari o‘zgartirilmasdan saqlab qolinadi

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Ta’kidlab o‘tilganidek, qonun loyihasida davlatning fuqarolar oldidagi barcha ijtimoiy majburiyatlarini bajarish uchun yetarli miqdorda mablag‘ ajratilgan. Shuningdek, 2025-yil uchun asosiy soliq va bojxona stavkalarini o‘zgartirmasdan saqlab qolish ko‘zda tutilmoqda.

Mahalliy davlat organlarining mustaqilligini oshirish va mahalliy byudjetlar balansliligini ta’minlash maqsadida Soliq qo‘mitasi hamda Kadastr agentligining hududiy organlari, Xalq qabulxonalari, kollejlar va texnikumlarni saqlash, sud boshqaruvchilari mehnatiga haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlarni mahalliy byudjetlardan moliyalashtirish tartibi saqlab qolinyapti.

Bunda Soliq qo‘mitasining hududiy organlarini saqlash xarajatlari tuman va shaharlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika, viloyatlarning viloyatlar, Toshkent shahrida esa shahar byudjetlaridan moliyalashtirishga o‘tkazilmoqda.

Bundan tashqari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining maktabgacha ta’lim va umumta’lim tashkilotlari hamda ixtisoslashtirilgan maktablarini qurilish-ta’mirlash va jihozlashga doir xarajatlari respublika byudjetidan moliyalashtirilishi belgilanyapti.

Fraksiya a’zolarining fan va ta’limni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy ishlarni moddiy qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya sohasiga ajratilayotgan mablag‘lar yuzasidan berilgan savollariga mutasaddilar tomonidan batafsil javoblar berildi. Muhokamadan so‘ng qonun loyihasi qo‘llab-quvvatlandi.

Kun tartibiga kiritilgan boshqa masalalar ham atroflicha ko‘rib chiqilib, tegishli qaror qabul qilindi.

Imtiyozlar va vakolatlar berilmoqda

O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida Soliq kodeksining 429-moddasiga o‘zgartirishlar kiritishga qaratilgan qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

Mazkur qonun loyihasi bilan Soliq kodeksiga tegishli o‘zgartirishlar kiritilyapti.



Ya’ni shaharlar va shaharchalarning ma’muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun soliq qishloq xo‘jaligi yerlari uchun belgilangan soliq stavkalarining ikki baravari miqdorida to‘lanishi tartibini bekor qilish ko‘zda tutilmoqda.

Fraksiya a’zolari hozirgi kunda tumanlarda joylashgan fermer xo‘jaliklarining shaharlar chegarasiga o‘tishi ushbu hududda faoliyat olib boruvchi fermer xo‘jaliklari tomonidan yer solig‘ini 2 barobar miqdorida to‘lanishiga sabab bo‘layotganini aytib, qonun loyihasi bilan ushbu tartib bekor qilinayotgani ayni muddao ekanini qayd etdilar.

Muhokamadan so‘ng qonun loyihasi fraksiya a’zolari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Yig‘ilishda, shuningdek, “Soliq va byudjet siyosatining 2025-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ham ko‘rib chiqildi.

Loyiha bilan suv resurslaridan foydalanganlik uchun turli darajadagi soliq stavkalari nazarda tutilyapti. Chunonchi, suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari joriy qilinganda hamda sug‘orish uchun olingan suv hajmi suv o‘lchash uskunalari asosida aniqlanganda soliq stavkasiga 0,5 kamaytiruvchi koeffitsiyent, mazkur texnologiyalarning bittasi joriy etilganda esa 0,7 kamaytiruvchi koeffitsiyent qo‘llanilgan holda to‘lanishi belgilanmoqda.

Suvni tejaydigan texnologiyalar umuman joriy qilinmaganda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 1,1 oshiruvchi koeffitsiyent qo‘llanilishi taklif etilyapti.

Bundan tashqari, tumanlar (shaharlar) mahalliy Kengashlariga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 gacha kamaytiruvchi va 1,5 gacha oshiruvchi koeffitsiyent qo‘llash, noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarishga mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan stavkalarga 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyent belgilash vakolatlari berilmoqda.

Fraksiya a’zolari qonun loyihasida ko‘zda tutilayotgan normalar partiya dasturiy maqsad va vazifalari hamda elektorati manfaatlariga to‘la mosligini ta’kidladi.

Qonun loyihasini takomillashtirishga qaratilgan bir qator taklif va tavsiyalar berildi hamda qo‘llab-quvvatlandi.

“Xalq so‘zi”.

BUYUK TARIXIY VOQELIK HAQIDA DADIL FIKR

1

Yana bir muhim jihat shundaki, Qudratilla Rafiqov o‘z javoblarida tarixiy-qiyosiy uslub asosida, ya’ni **“Kim edik, kim bo‘ldik, kim tufayli”** degan mantiqiy silsilaga tayanadi. Ilmiy aniq, badiiy ravon va dadil tafakkur bilan so‘zlaydi. O‘zbek siyosatshunosi G‘arbning nomi dunyoga taniqli 2 nafar muallifini tilga olgan va ularning shov-shuvli kitoblarini tanqidiy tahlil etgan.

Bulardan biri – amerikalik olim, AQSHning Kolumbiya universiteti professori **Edvard Vadi Said** bo‘lib, uning **“Oriyentalizm”** nomli kitobi juda mashhur. Ikkinchisi – AQSH Prezidentining milliy xavfsizlik bo‘yicha sobiq maslahatchisi **Zbignev Bjezinskiy** va uning **“Buyuk shaxmat taxtasi”** asaridir.

Avvalo, **“oriyentalizm”** atamasiga aniqlik kiritib olaylik. Ushbu tushuncha G‘arb dunyosining Sharq haqidagi ilmiy izlanishlari va uydirmalarga asoslangan farazlarining mujassamini anglatadi. Ilmiy nuqtayi nazardan, oriyentalizm – Sharq tillari, madaniyati va tarixiga oid tadqiqotlar majmuini o‘zida qamrasa-da, ayni vaqtda mazkur yo‘nalish sharqona jamiyatlar haqida noto‘g‘ri tushuncha va tasavvurlar to‘qib-tarqatilishini tanqid qiladi.

Shu ma’noda, **Edvard Vadi Said**ning 1978-yili nashrdan chiqqan **“Oriyentalizm”** kitobi unda G‘arb tomonidan Sharq ilm-fani, san’ati va siyosatiga oid noto‘g‘ri qarashlar, ta’bir joiz bo‘lsa, “Sharqning beo‘xshov qiyofasi” qay tarzda uydirmalashtirilgani xususida so‘z borganligi bilan ahamiyatlidir.

E. Saidning fikricha, oriyentalizm go‘yoki “ekzotik” va “irratsional” Sharq qiyofasini “ratsional” va “rivojlangan” G‘arb timsoliga qarshi qo‘yishga intilgan kolonializm siyosatining mafkuraviy quroli bo‘lgan. O‘z navbatida, postkolonializm davrida E. Saidning kitobi bunday nomaqbul yondashuvni tanqid ostiga oluvchilar uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Bu o‘rinda Qudratilla Rafiqovning kinoyali bo‘lsa-da, ilmiy jihatdan to‘g‘ri mana bu fikrlari diqqatga molik: **“Oriyentalizm talablariga ko‘ra, Sharq o‘zi haqida o‘zi gapira olmaydi, o‘zini o‘zi tanita olmaydi, taqdim eta olmaydi, balki boshqalarning o‘zi haqida gapirishlariga, taqdimiga, demak, Yevropa fani ko‘magiga muhtoj”**.

O‘zbek siyosatshunosi ayni mavzudagi mulohazalarini G‘arbning Markaziy Osiyo mintaqasiga yondashuvining tanqidiy-tahliliy talqini misolida izchil davom ettiradi. Q. Rafiqov aytganidek, **“o‘lkamiz bir yarim asr davomida ikki bor mustamlakachilikni boshidan kechirdi... Qolaversa, bugungacha bizning nomimizdan ham gapirdilar, kimlardir bizni atrofga tanishtirdi. Biz ham uzoq yillar hukmron kuchlar oldida “churq etmay o‘tiruvchi” “o‘zga”ga aylandik...”**.

O‘z navbatida, intervyuda amerikalik siyosatshunos **Z. Bjezinskiy**ning asari ham tahlilga tortilgan. Bu kitob nomida tilga olingan **“shaxmat taxtasi”** iborasi nimani anglatadi?

Markaziy Osiyo mintaqasi, Z. Bjezinskiyning ta’rificha, shaxmat taxtasiga o‘xshaydi. Bu taxtada, oq va qora tomonlar, ya’ni do‘st va g‘anim kuchlar bor. Taxtadagi “shoh”lardan tortib “piyoda”largacha barcha “dona”lar “o‘yin”ga jalb etilgan.

Bunda “shoh”lar – kuchli davlatlar, albatta, “piyoda”larni, ya’ni mintaqamizda 1991-yildan e’tiboran mustaqilligini e’lon qilgan navqiron davlatlarni yengadi. Shu tariqa go‘yoki muazzam Sharqning qadimiy Movarounnahr atalmish hududida batamom G‘arb hukmronligi o‘rnatiladi.

Kezi kelganda, ilk bor Z. Bjezinskiy tomonidan ilgari surilgan **“Yevroosiyo Bolqonlari” degan nazariya** ham atroflicha bahs-munozaralarga turtki berganligini aytmasak bo‘lmas. Bu nazariyaga ko‘ra Markaziy Osiyo strategik ahamiyatga ega mintaqa hisoblanadi.

Shunday bo‘lsa-da, kuchli davlatlar raqobati markazida hamda ularning ta’sir doirasida turgani uchun mintaqamiz go‘yoki kelgusida taraqqiy etmaydi va beqaroru omonat bo‘lib qolaveradi. Hatto Markaziy Osiyo Yevropaning Bolqon mintaqasi kabi turli siyosiy va etnik mojarolar domida qolib ketishi tayin emish.

Shuni ta’kidlash joizki, Qudratilla Rafiqov G‘arb siyosatshunoslarining mazkur asarlariga ilmiy asoslangan baho tarzidagi o‘z qat’iy, asosli va xolis munosabatini bildirganidan mamnunmiz. Ayniqsa, o‘zbek siyosatshunosining **“men janob Z. Bjezinskiyning bashoratlari oqlanmadi, deb bemalol ayta olaman”**, degan dadil fikri har qancha e’tirofga arziydi.

Xo‘sh, janob Bjezinskiyning bashoratlari nega puch bo‘lib chiqdi? Chunki mintaqamizdagi mamlakatlar ichki barqarorlik va tinchlik-osoyishtalikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratmoqda. Shuningdek, mintaqa davlatlari ko‘p vektorli tashqi siyosat olib bormoqda.

Bunday oqilona yondashuv, bir tomondan, bugungi murakkab va tez o‘zgarayotgan dunyoda mintaqamizda istiqomat qilayotgan har bir inson va barcha xalqlarning farovonligini ta’minlamoqda. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo davlatlarining ikki tomonlama, mintaqaviy va xalqaro darajalardagi o‘zaro yaqin hamkorligi mintaqamiz tinchligi, barqarorligi hamda taraqqiyotiga xizmat qilmoqda.

Shu o‘rinda bir amaliy taklif: bundan bir necha yillar oldin YUNESKO tomonidan nashr etilgan 6 jildli “Markaziy Osiyo tamaddunlari tarixi” kitobi hududimizning boy tamaddunlari tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan. Uni tayyorlashda o‘zbek olimlari qatnashgan.

Prezidentimiz mazkur kitoblar turkumini o‘zbek tiliga tarjima qilish tashabbusini ilgari surgandi. Mas’ul tashkilotlar ushbu 6 jildlikning tarjimasi va nashr etilishini endi ortga surmasliklari kerak, deb hisoblaymiz.

“Yangi O‘zbekiston” asoschisi, me’mori va bunyodkori

Jurnalistning **“Jamiyatda va ijtimoiy-siyosiy hayotda ajabtovur epitet – “Yangi O‘zbekiston” kalimasining paydo bo‘lishiga sabab nima?”**, degan savoliga Qudratilla Rafiqov batafsil to‘xtalib:

birinchidan, tarixiy faktlarga asoslangan holda;

ikkinchidan, ilmiy yondashuv negizida;

uchinchidan, 30 yillik tarixiy jarayonlarning bevosita ishtirokchisi sifatida xolis hamda munosib javob qaytargan.

Bu javobning o‘q ildizini **“Yangi O‘zbekiston” va uning asoschisi, me’mori hamda bunyodkori – Prezident Shavkat Mirziyoyev**, degan haqqoniy xulosa tashkil etadi. Binobarin, ushbu atama aynan Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston rahbari sifatida faoliyat boshlagan davrdan e’tiboran kun tartibiga chiqdi.

Sodda qilib aytganda, **“Yangi O‘zbekiston” – bu mamlakatni yangilash va isloh etish konsepsiyasidir**. Bunda iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash, demokratlashtirish va fuqarolarning turmush darajasini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev hokimiyat tepasiga kelganida O‘zbekiston va Markaziy Osiyoda vaziyat qanday edi?

O‘zbekistonning yangi Prezidentiga qanday meros qoldi?

Yangi rahbarning ichki va tashqi siyosatga doir ilk qadamlari qanday bo‘ldi?

O‘tgan sakkiz yillik siyosati tufayli Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekistonda qanday natijalarga erishdi?

Qudratilla Rafiqov shu kabi taqdirulamal savollarga javob berar ekan, tarixiy-qiyosiy uslubga murojaat qilgan holda yangi O‘zbekistonni ichki va tashqi dunyoga tanitgan o‘ziga xos bir qator yutuqlarni e’tirof etgani juda muhim. Asosiysi, o‘zbek siyosatshunosi xorijiy jurnalistning **“Yangi O‘zbekiston” atamasi qayerdan paydo bo‘ldi**, degan mazmundagi savoliga shunday javob qilgan:

“Darhaqiqat, bunga ham ma’naviy, ham siyosiy nuqtayi nazardan ehtiyoj bor edi. Chunki odamlar ham, davlat ham endi bu yo‘sin yashab bo‘lmasligini teran anglayotgandi. Yangi O‘zbekiston sifatlovchisi esa shu yo‘lda safarbarlik yoki istiqboldagi yangilanishlarga da’vat – ishoradek kun tartibiga chiqdi”.

Qudratilla Rafiqovning siyosiy publitsistikasi haqida ikki og‘iz so‘z

Rostini aytsam, shu vaqtgacha bunday ta’sirchan, qamrovdor va haqqoniy intervyuni o‘qimagan edim. Suhbatda taniqli siyosatshunos, senator, jamoat arbobi Qudratilla Rafiqovning yuksak siyosiy salohiyati, xususan, yangi O‘zbekistonning davlat va jamiyat qurilishi sohasi bilan bog‘liq o‘zgarishlardan to‘la xabardorligi yaqqol namoyon bo‘lgan.

Bu bejiz emas. Chunki Qudratilla aka so‘nggi 8 yilda O‘zbekiston, Markaziy Osiyo mintaqasi, MDH makoni va butun jahon sahnida yuz berayotgan eng muhim voqea-hodisalardan nafaqat xabardor bo‘lib, ayni vaqtda ana shu voqeliklarga o‘z munosabatini bildirib kelmoqda.

Muhimi, hassos o‘zbek siyosatshunosi ta’biri bilan aytganda, ushbu izchil va ko‘lamdor yangilanishlar asnosida **Inson va Qadr**, **Istiqlol va Vatan** kabi o‘zak tushunchalarning asl mohiyatini qaytadan angladik. Yanada muhimi, **“Yangi O‘zbekiston”, “Uchinchi Renessans”, “Xalqparvar davlat”, “Adolatli jamiyat”** degan istilohlar nafaqat ong-shuurimizdan, balki hayotimizdan chuqur joy ola boshladi.

Buning tasdig‘i sifatida, avvalo, Qudratilla Rafiqovning qalamiga mansub **“Ilk va so‘nggi so‘zimiz: Vatan”, “Vatan va millat qayg‘usi”, “Mening Prezidentim!”** nomli kitoblarini tilga olish o‘rinli, deb hisoblayman. Kamina ushbu kitoblar tahlili va talqiniga bag‘ishlangan **“Yangi O‘zbekiston simfoniyasi”** risolasini nashr ettirgan bo‘lib, uning dastlabki sahifalarida mana bunday satrlar qayd qilingan:

“Millat Sardori ilgari surgan ushbu yangi hamda millatimiz, xalqimiz va Vatanimiz istiqboliga bevosita daxldor tushunchalarning amaliy mohiyatini ochib berishda yurtimiz ishchi-xizmatchilari – mehnatda erishayotgan samaralari, muallimlar – sifatli saboqlari, olimlar – ilmiy natijalari, shoiru yozuvchilar – yoniq asarlari, siyosatchilar – da’vatkor g‘oyalari bilan salmoqli hissa qo‘shmoqdalar.

Bu qizg‘in jarayonda taniqli siyosatshunos, davlat va jamoat arbobi, senator, qisqacha aytganda, millatni ulg‘aytirayotgan bedor insonlardan biri Qudratilla Rafiqovning amaliy va publitsistik faoliyati alohida e’tiborga sazovor”.

Keyingi davrda Qudratilla akaning siyosiy ijod bilan bog‘liq faoliyatida yangi marralar zabt etildi. Bu o‘rinda so‘z o‘zbek siyosatshunosining 2023-yilda nashrdan chiqqan **“Millatparvar”** nomli navbatdagi kitobi haqida bormoqda. Ushbu kitoblarning ayrimlari hatto xorijiy mamlakatlar tillarida, masalan, Bokuda ozar tilida ham nashr etildi.

Bu kitoblar turkumi, ta’bir joiz bo‘lsa, muallifning ma’naviyat jamlangan oltin sandiqlari nafaqat millatimiz ziyo ahli, balki jahon afkor ommasining ham e’tiboriga tushganligi bejiz emas. Chunki siyosatshunos Qudratilla Rafiqovning kitoblarida keyingi sakkiz yil davomida butun dunyo bemisl qiziqish va havas bilan kuzatayotgan yangi O‘zbekistondagi yuksalish odimlari hamda Prezident Shavkat Mirziyoyevning xalqimizga, millatimizga ko‘rsatayotgan mislsiz mehribonliklari va g‘amxo‘rliklari, eng muhimi, ishonchli Liderlik salohiyati hayotiy dalillar va aniq misollar asosida talqin etilgan.

Eng muhimi, Qudratilla Rafiqov o‘z nuqtayi nazarini kitob va gazetalardagi hammaga ma’lum hamda bir qadar rasmiy axborotlarga tayanib emas, balki yaqin va uzoq o‘tmishni teran tahlil etish asnosida bayon qiladi. Tarixiy jarayonlarga ochiq ko‘z bilan qarab, ilmiy-publitsistik nuqtayi nazardan tiyrak yondashadi.

Qudratilla Rafiqov siyosiy publitsistikasining o‘ziga xos xususiyati shundaki, avvalo, u tushunarli va sodda tilda yozadi. Shu bilan birga, ilmiylik, tarixiylik, kuchli mantiqiy asoslanganlik, mavzuga oid tarixiy va ilmiy manbalardan xabardorlik fazilatlari ham Qudratilla akaning ijodiy uslubiga “uzukka ko‘zdek” yarashiqli jihatlardir.

Akmal SAIDOV,
akademik.

O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasida vizasiz sayohat qilish bitimi imzolandi.

KONSTITUTSIYA – HUQUQ VA ERKINLIKLARIMIZNING MUSTAHKAM KAFOLATI

1 Shu ma’noda, joriy yilning 27-oktabr kuni parlament va mahalliy Kengashlarga bo‘lib o‘tgan saylovlarni xalqimizning xohish-irodasini ifoda etgan siyosiy tanlov sifatida baholash mumkin. Zero, mamlakatimiz Konstitutsiyasining 128-moddasida ham fuqarolar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga ega ekani belgilangan. Ovoz berish huquqi, o‘z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlangan.

Bu muhim voqea “Mening tanlovim – obod Vatanim” shiori ostida, rivojlangan ijtimoiy-siyosiy muhitda, beshta siyosiy partiyaning teng raqobat kurashi ostida o‘tdi. O‘zbekiston tarixida ilk bor Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovlari aralash saylov tizimi, ya’ni majoritar-proporsional tizim asosida o‘tkazildi. Deputatlarning 75 nafari bevosita majoritar tizim asosida, ya’ni saylovchilar o‘zlariga maqbul nomzodlarga ovoz berishi yo‘li bilan, qolgan 75 nafari esa proporsional tizim bo‘yicha siyosiy partiyalarga berilgan ovozlar asosida saylandi.

Saylov qonunchiligi ilg‘or demokratik standartlarga mos ravishda tubdan takomillashtirildi. Saylovga 2023-yil 18-dekabr kuni qabul qilingan Konstitutsiyaviy Qonun – O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi va “Referendum to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha Konstitutsiyaviy Qonun asosida tayyorgarlik ko‘rildi.

Bu galgi saylovlarning yana bir muhim jihati shundaki, unda 2023-yil umumxalq referendumi asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq, aholining ayrim guruhlari uchun saylov huquqlarini cheklash bekor qilindi. Bu xalqaro standartlarga to‘liq mos keladi. Bundan tashqari, qonun hujjatlariga kiritilgan o‘zgartirishlarga ko‘ra senatorlar soni 100 tadan 65 taga qisqartirildi va hukumat faoliyati ustidan parlament nazoratining yangi mexanizmlari joriy etildi.

Saylov tizimini isloh qilish bo‘yicha qonunchilik jarayoni rasmiy ravishda jamoatchilik maslahatini o‘z ichiga olgan bo‘lib, bu fuqarolarga o‘z takliflarini bildirish imkonini berdi.

Bu esa Konstitutsiya asosida insonning siyosiy va boshqa huquq hamda erkinliklarini amalga oshirishi, davlat organlarining demokratik asosda shakllanishini ta’minlash, jamiyatning demokratik siyosiy tizimini mustahkamlashga ko‘maklashish hamda demokratik va fuqarolik jamiyati institutlari rolini kuchaytirish uchun qulay shart-sharoit yaratish kafolati hisoblanadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O‘zbekistonning besh ustuni, ya’ni suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekani qat’iy belgilab qo‘yildi, uning mazmuni tubdan takomillashtirilib, yangi bob va moddalar bilan boyitildi. O‘zbekiston Konstitutsiyasiga “dunyoviy va ijtimoiy davlat” ta’rifi kiritildi, o‘zbek xalqining farovon kelajagini ta’minlashga qaratilgan erkin bozor iqtisodiyotining asoslari mustahkamlandi, Prezidentning ayrim vakolatlarini parlamentga taqdim etish orqali demokratlashuv jarayoni jadallashtirildi, intellektual mulkdan tortib inklyuziv ta’limgacha bo‘lgan muhim huquqlar kafolatlandi.

Ushbu konstitutsiyaviy referendum bilan xalq va davlat o‘rtasidagi “Ijtimoiy kelishuv” yangilandi va yanada mustahkamlandi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qabul qilish uchun aholining 90 foizdan ziyodi ovoz berishi xalqimiz Prezidentga ishonayotganidan, mamlakatimizda olib borilayotgan siyosatni qo‘llab-quvvatlayotganidan, davlatimizning ijtimoiy va qonunchilik siyosati izchil davom etishiga chin dildan umid qilayotganidan, eng muhimi, xalqimizning siyosiy ongi, huquqiy madaniyati va dunyoqarashi naqadar yuksalganidan dalolatdir.

Bugungi O‘zbekiston marrani juda baland olgani hech kimga sir emas. Chunki globallashuv jarayonining shiddati, jahonda sodir bo‘layotgan voqea va hodisalarning rivojlanish evolyutsiyasi shuni taqozo etmoqda.

Har bir soat, har bir kundan samarali, unumli foydalanish suv va havodek zarur. O‘zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasi mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalari, umuman, yurt va xalqning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolat yaratadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi bilan boshlangan o‘zgarishlar shabadasi xalqimizga chinakam erk berdi, uning qadrini yuksakka ko‘tardi. Xalqimiz buni qalbidan his qilib turibdi. Shunga yarasha odamlar dunyoqarashi ham o‘zgardi. Har qanday islohotlar yo davlat tizimini o‘zgartirish yo‘lidan yoki xalq hayotini yangilash yo iqtisodiyotga qaratilganligi bilan kechishiga ko‘p bora guvoh bo‘lganmiz, lekin O‘zbekistonda 2016-yildan boshlangan islohotlar butunlay boshqacha qiyofa kasb etdi.

Islohotlar markazida inson turganligi, qolgan barcha yangilanishlar mana shu insonning atrofida kechganligi butun dunyo uchun yangilik bo‘ldi, deb aytishga to‘la asoslar bor. Shuning uchun ham islohotlar negizida namoyon bo‘lgan inson nafaqat hayoti o‘zgarishini, balki butun tafakkuri yangilanishini, o‘z huquqlarini Konstitutsiya ta’minlashini istashi tabiiy.

Inson qadri toptaladigan, uning hayoti, taqdiri kimlarningdir xohish-istagi bilan boshqariladigan, davlat qudrati esa uning tabiiy boyliklari, harbiy kuchi, iqtisodiy imkoniyatlari bilan o‘lchanadigan zamonlar allaqachon o‘tib ketgan.

Bugun xalqning, eng avvalo, turmush darajasi, huquqlari, intellekti, dunyoqarashi, tafakkur olamiga qarab baho berish urfga aylandi. Inson aql-idroki, uning hayotdan rozilik darajasi, haq-huquqlarining so‘zsiz ta’minlanishi bu har qanday davlat qudratidan muhimroqdir. Bugun O‘zbekiston tutgan yo‘l insonni qadrlashga, odamlarni yaxshi ko‘rishga, kishilarni rozi qilishga qaratilgani bilan ham butun dunyoni hayratga solmoqda.

Konstitutsiyani yangilash ehtiyoji ham shu talablardan kelib chiqdi. O‘zbekistonda, avvalo, inson qadri birinchi o‘ringa ko‘tarildi. Shuning uchun O‘zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasiga “Inson – jamiyat – davlat” tamoyili kiritilgani bejiz emas.

Biz yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda insonni jamiyat va davlatdan ustun qo‘yyapmiz. Lo‘nda qilib aytganda, biz ijtimoiy davlat qurish sari yo‘l olyapmiz. Konstitutsiyada ham bu masala muhrlandi.

Ijtimoiy davlatda har bir inson uchun munosib yashash sharoitlari kafolatlanadi. Hech kim e’tibordan chetda qolmaydi. Bir inson muammosi butun jamiyatning muammosi, deb qaraladi. Insonlar o‘z tashvish va qiyinchiliklari bilan yolg‘iz qoldirilmaydi.

Prokuratura organlari xodimlari Asosiy Qonunimizda mustahkamlangan normalar asosida har bir fuqaroga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, inklyuziv rivojlanish, aholining barcha qatlami uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlashga harakat qilmoqda.

Xususan, ijtimoiy-iqtisodiy sohaga oid qonunlar, Prezident qarorlari ijrosini ta’minlash borasida asosiy e’tibor aholini ijtimoiy muhofaza qilish, muhtoj oilalar, yoshlar va xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalalariga qaratildi.

Birgina prokurorlar sektorlaridagi “temir daftar”ga kiritilgan 7 133 ta oilaga har tomonlama ko‘mak berildi, jumladan, ularning 3 143 nafar ishsiz a’zosining ishga joylashtirilishi, 96 ta oilaga yangi uy-joylar qurib berilishi, 264 tasining turarjoylari ta’mirlanishi ta’minlandi.

Prokurorlar ko‘magi bilan 40 ming 368 nafar xotin-qiz ishga joylashtirildi. Shu kabi 4 107 nafar yosh ish bilan ta’minlandi, 4 798 nafar yosh esa kasb-hunar va xorijiy tillarni o‘rganish kurslariga jalb etildi.

Shu o‘rinda bir masalaga e’tiborni qaratmoqchiman. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda davlatning ijtimoiy majburiyatlari 3 barobar ko‘paytirildi. Bu raqamni aytish oson, lekin uni amalda ta’minlashning o‘zi bo‘lmaydi. Mamlakatimizda “Qonun – ustuvor, jinoyatga jazo muqarrar” degan ezgu tamoyil asosida qonuniylikni ta’minlash borasidagi ishlarda prokuratura xodimlari jonbozlik ko‘rsatishi lozim, deb o‘ylayman. Xalqimizning og‘irini yengil qilish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, kambag‘allikka qarshi kurashishga qaratilgan dasturlar ijrosini nazorat qilish, atrof-muhit, tabiiy boyliklar va madaniy merosimizni ko‘z qorachig‘idek asrash, tibbiyot, ta’lim va boshqa sohalardagi islohotlarni ro‘yobga chiqarishda lokomotiv bo‘lish hamda bu borada qonun buzilishiga murosasiz kurashish – prokuratura xodimlarining konstitutsiyaviy burchi va eng asosiy vazifasidir.

Darhaqiqat, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada muhim ijtimoiy masalalar o‘z aksini topgan. Jumladan, Bosh qomusimizda alohida modda sifatida kiritilgan ta’lim sohasi jamiyatimizdagi eng dolzarb, islohotlarni talab etadigan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Birinchi navbatda o‘qituvchilar maqomini ko‘tarish, ularning qadr-qimmatini yuksakka olib chiqish Konstitutsiyada ifodasini topdi. Ustoz-murabbiylar qadrlangan davlatda yosh avlodni yetuk kadr, xalq xizmatchisi qilib tarbiyalashga zamin yaratiladi. O‘qituvchilar vazifasi barkamol avlodni tarbiyalash bilan birga, milliy qadriyatlarimiz, an’analarimizni avloddan-avlodga olib o‘tuvchi

> ***“Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O‘zbekistonning besh ustuni, ya’ni suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekani qat’iy belgilab qo‘yildi, uning mazmuni tubdan takomillashtirilib, yangi bob va moddalar bilan boyitildi. O‘zbekiston Konstitutsiyasiga “dunyoviy va ijtimoiy davlat” ta’rifi kiritildi, o‘zbek xalqining farovon kelajagini ta’minlashga qaratilgan erkin bozor iqtisodiyotining asoslari mustahkamlandi, Prezidentning ayrim vakolatlarini parlamentga taqdim etish orqali demokratlashuv jarayoni jadallashtirildi, intellektual mulkdan tortib inklyuziv ta’limgacha bo‘lgan muhim huquqlar kafolatlandi.”***

mutaxassislar tayyorlash. Shu bois ularning huquq va erkinligi qonun bilan mustahkamlandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya yangi O‘zbekiston ravnaqining huquqiy poydevorini mustahkamlashga qaratilgan va bu jahon tajribasiga mos tabiiy jarayondir. Bir haqiqatni chuqurroq bilishimiz, anglashimiz shart. Konstitutsiyaviy islohotlar zamirida, avvalo, yurtdoshlarimizga munosib hayot darajasini yaratish, haq-huquqlarini himoya etish, xususiy mulk huquqini kafolatlash, qiynoqlar, tazyiqlar, tahqirlarga chek qo‘yish, tadbirkorlikka g‘ov bo‘ladigan har qanday illatlar bilan murosa qilmaslik kabi insonparvar maqsadlar mujassamlashgan.

Shu ma’noda, iqtisodiy sohada nazorat faoliyatini amalga oshirishda asosiy e’tibor iqtisodiyot tarmoqlarining barqarorligini saqlashga, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga doir vazifalar ijrosiga qaratilyapti. Olaylik, o‘tgan vaqt mobaynida 6 202 nafar tadbirkorga 752,5 mlrd. so‘mlik kredit, 444 nafariga 1 696 gektar yer maydoni, 115 nafariga bino, 1 186 nafariga litsenziya va ruxsatnoma berilishida, 7 535 nafariga kommunikatsiya tizimlariga ulanishida, 8 382 nafariga boshqa muammolarining hal etilishida prokuratura organlari tomonidan amaliy yordam ko‘rsatildi.

Prokuratura organlari ko‘magi bilan 6 540 ta yangi tadbirkorlik subyekti tashkil etildi, 7 332 ta subyektning faoliyati tiklandi, 18 ming 016 ta yangi ish o‘rni yaratilishi ta’minlandi.

Kredit mablag‘lari talon-toroj qilinishining oldini olish, muammoga aylangan kredit qarzdorliklarining qaytarilishini ta’minlash ishlari ustidan nazorat yanada kuchaytirildi. Amalga oshirilgan tadbirlar natijasida jami 18,4 trln. so‘mlik yoki 69 foiz muammoli kreditlar qisqartirildi.

Prokuratura organlarining aralashuvi bilan qarzdorliklarning 11,9 trln. so‘mi amalda undirildi, 8,8 trln. so‘mlik kreditlar bo‘yicha garovdagi mulklarning sotuvga chiqarilishi ta’minlandi, 1,6 trln. so‘mlik ijro hujjatlari bo‘yicha undiruv qarzdorlarning ish haqiga qaratildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning birinchi moddasida O‘zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat, deb qat’iy belgilab qo‘yilgani tarixiy ahamiyatga ega.

Davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, xalqimizning xohish-irodasi bilan Asosiy Qonunda muhrlangan bu prinsiplar – mamlakatimizning taraqqiyot yo‘li va taqdirini, uning kelajagini belgilab bergan ushbu “beshta ustun” hech qachon o‘zgartirilmaydi.

Zero, bu tamoyillar faqat va faqat xalqimiz, Vatanimiz manfaatlarini himoya qilishni, tengsiz va buyuk ne’mat – mustaqilligimizni asrab-avaylash, uni yanada mustahkamlash va kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirishni ko‘zlaydi. Bunda, eng avvalo, mashaqqatli mehnat, ter to‘kish kerak bo‘ladi. Davlatimiz rahbari bu borada qator vazifalarga to‘xtalib o‘tdi. Birinchidan, milliy xavfsizlikni ta’minlash, Qurolli Kuchlar jangovar salohiyatini oshirishga qaratilgan ishlar yangi bosqichga olib chiqiladi. Ikkinchidan, “xavfsiz shahar”, “xavfsiz mahalla”, “xavfsiz ko‘cha” konsepsiyalari jadal amalga oshiriladi. Uchinchidan, totuvlik, millatlararo do‘stlik va bag‘rikenglik muhitini yanada mustahkamlash uchun bor kuch va imkoniyatlar safarbar etiladi. Negaki, aynan millatlararo totuvlik 130 dan ziyod millat va elatlar istiqomat qiladigan O‘zbekistonimizning eng katta boyligi. To‘rtinchidan, dunyodagi hozirgi murakkab vaziyatda O‘zbekiston tinchliksevar tashqi siyosatni davom ettirib, uzoq va yaqin davlatlar bilan do‘stlik aloqalarini, barcha sohada o‘zaro hamkorlikni rivojlantirib boraveradi. O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligi va suverenitetini ta’minlash maqsadida faqat milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda bundan buyon ham o‘zi tanlagan mustaqil taraqqiyot yo‘lida tashqi siyosatini qat’iy davom ettiradi.

Bosh qomusimiz mamlakatda qonun ustuvorligini ta’minlash hamda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, “yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish hamda korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish borasida tizimli ishlar amalga oshirildi.

Joriy yil yanvar – noyabr oylarida “yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish hisobiga 15,7 trln. so‘m qo‘shimcha manba aniqlanib, 15,3 trln. so‘m Davlat byudjetiga undirilishi ta’minlandi.

Iqtisodiy jinoyatlar, “xufiyona iqtisodiyot” va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ko‘rilgan choralar natijasida 8 448 ta huquqbuzarlik aniqlanib, 1 983 ta ma’muriy va 6 465 ta jinoyat ishi qo‘zg‘atildi.

O‘tkazilgan tezkor tadbirlar davomida 1 750 ta yashirin sex faoliyati fosh etilib, 103,1 mlrd. so‘mlik tovar-moddiy boyliklar olib qo‘yildi, valyutaning noqonuniy aylanmasi bilan bog‘liq 354 ta huquqbuzarlik aniqlanib, 1,1 mln. AQSH dollari va 10,3 mlrd. so‘m musodara qilindi.

Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tomonidan tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini samarali himoya qilish maqsadida qonunchilik hujjatlarini tushuntirish va iqtisodiy huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha 47 mingta tadbir tashkil etildi. Tadbirkorlik bilan noqonuniy shug‘ullangan 13 ming 706 nafar shaxsning tadbirkorlik subyekti sifatida ro‘yxatdan o‘tishi ta’minlandi.

Virtual va Xalq qabulxonalaridan kelib tushgan 149 936 ta murojaatdan 135 949 tasi (90,6 foiz) hal qilindi.

Murojaatlarni ko‘rib chiqishda fuqarolarning buzilgan huquqlarini amalda tiklashga alohida e’tibor qaratilib, bu borada: noqonuniy hujjatlarga 572 ta protest keltirildi, 13,2 mlrd. so‘m zararni undirish haqida sudlarga 480 ta ariza kiritildi. 738 nafar shaxs intizomiy, ma’muriy va moddiy javobgarlikka tortildi, qo‘pol qonun buzilishi holatlari yuzasidan 330 ta jinoyat ishi qo‘zg‘atildi.

Shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan shaxsni qiynoqqa solish va qadr-qimmatini kamsitish hamda boshqa g‘ayriqonuniy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish choralari yanada kuchaytirildi. Jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan kelib tushgan 116 ta ariza va xabarning barchasi bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv harakatlari o‘tkazildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tegishli idoralar bilan birgalikda mahalliy davlat hokimiyati, sog‘liqni saqlash, sport, oliy ta’lim, qurilish, kambag‘allikni qisqartirish va bandlik tizimidagi xodimlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar, ayniqsa, yo‘l qo‘yilayotgan korrupsiyaviy holatlarning sabab va shart-sharoitlari tahlil qilinib, tegishli vazirlik va idoralarning kengaytirilgan yig‘ilishlarida ularning rahbarlari va mas’ul xodimlari ishtirokida tanqidiy muhokama qilinib, zarur chora-tadbirlar belgilandi.

“Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun va uni amaliyotga samarali joriy etish chora-tadbirlari yuzasidan qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida belgilangan talablar ijrosini ta’minlash choralari ko‘rilmoqda.

Davlatimiz rahbarining mamlakatimiz oldida turgan eng dolzarb vazifalar, Konstitutsiyaning har bir moddasi, har bir bandi bajarilishi lozimligi haqidagi fikrlari har birimizni yanada mas’uliyatli bo‘lishga, yurt manfaati uchun halol va vijdonan ishlashga da’vat etishi bilan e’tiborlidir.

Chiqariladigan xulosa shundan iboratki, O‘zbekiston nafaqat iqtisodiy islohotlarni davom ettiradi, balki jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash uchun ham intiladi.

Zero, Konstitutsiyamizda ilk bor, O‘zbekiston Respublikasiga huquqiy davlat degan ta’rif berilgani bejiz emas. Bu – avvalambor barcha sohada qonun ustuvorligi ta’minlanadi, degani. Prezidentimiz qayd etganidek, bundan buyon, qonunlardagi noaniqliklar inson foydasiga hal bo‘ladi.

Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish uchun sudlarning odil va mustaqil ish yuritishini, albatta, amalda ta’minlashimiz zarur. Shu maqsadda Asosiy Qonunimizda hech kim sud qarorisiz 48 soatdan ortiq ushlab turilishi mumkin emasligi belgilandi. Erkinlikni cheklashga faqat sud qarori asosida yo‘l qo‘yilishi haqidagi qoida mustahkamlandi.

Ayblanuvchiga o‘ziga qarshi ko‘rsatma bermaslik, ya’ni “sukut saqlash” huquqi birinchi marta alohida belgilab qo‘yildi.

Shuningdek, Konstitutsiyamizda advokatura haqida alohida bob kiritilib, advokatlik maqomi mustahkamlandi.

Albatta, Asosiy Qonunga kiritilgan bu ilg‘or yangiliklarni amalda joriy etish oson bo‘lmaydi. Buning uchun yurtdoshlarimizning o‘zlari ham qonuniy huquqlari uchun kurashishlari talab etiladi. “Qars ikki qo‘ldan chiqadi”, deganlaridek, tergovchi, prokuror, sudya, advokatlarning bilim va malakasi, ma’naviy dunyosini yuksaltirish bilan birga, aholining ham huquqiy madaniyatini oshirish, dunyoqarashini o‘zgartirish talab etiladi.

Yangi O‘zbekistonning Konstitutsiyasi mamlakatimizning yangi bir rivojlanish davrini boshlab beryapti.

Qolaversa, Bosh qomusimiz uchinchi Renessansning poydevori, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu, albatta, barchamizdan juda katta mas’uliyat va talabchanlikni, o‘z o‘rnida, javobgarlikni talab qiladi. Ushbu omil Konstitutsiyani jamiyat hayotining barcha jabhasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bevosita qo‘llash amaliyotiga o‘tish imkonini berar ekan, xalqimiz Asosiy Qonunning hayotbaxsh kuchi va ta’sirini o‘z kundalik turmushida teran his etaveradi.

Nig‘matilla YO‘LDOSHEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Bosh prokurori.

MATONAT SOHIBLARI

XALQIMIZ E’TIBORIDA, DAVLATIMIZ HIMOYASIDA

1 Mamlakatimizda ijtimoiy adolat prinsipiga amal qilish, yordam va qo‘llab-quvvatlashga muhtoj, birinchi navbatda, jismoniy imkoniyati cheklangan odamlarga to‘laqonli hayot kechirish uchun sharoit yaratish masalasi davlat va jamiyatning doimiy diqqat markazida turadi. Konstitutsiyamizda bu masalalar muhrlab qo‘yilgan.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan barcha fuqaro, jumladan, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun bir xil imkoniyatlar amal qiladigan inklyuziv jamiyatni barpo etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilyapti. Shu asosda nogironlikni belgilashning allaqachon



eskirgan tibbiy modelidan umume’tirof etilgan ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich o‘tish sari muhim qadamlar tashlanmoqda. Xususan, bino va inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish, jamoat transporti, axborot va aloqa vositalarini ishlab chiqarishda nogironligi bo‘lgan shaxslarning ulardan hech bir moneliksiz foydalana olishiga birlamchi ahamiyat qaratish boshlandi. Nogironligi bor shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash markazlaridagi qamrov hajmini 2 barobar oshirish, hududlarda faoliyat ko‘rsatayotgan 10 ga yaqin shunday markazlarni kengaytirib, zamonaviy tibbiy va reabilitatsiya uskunalari bilan jihozlash ishlari davom ettirilmoqda.

Shu o‘rinda 2023-yil 27-fevralda Prezidentimizning “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori imzolangani ayni muddao bo‘lganini ta’kidlash joiz. Qaror inson huquqlari, jumladan, nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarining kafolatlarini mustahkamlash, inklyuziv rivojlanish, aholining barcha qatlami teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishini ta’minlashning samarali mexanizmlarini joriy qilish, nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyat hayotining barcha sohasida ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilindi.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida aholining muhtoj qismini zamonaviy protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya vositalari bilan ta’minlash darajasini 60 foizga yetkazish belgilangan. Mazkur ko‘rsatkichga erishish doirasida muhtoj shaxslarni xorijiy texnologiyalar asosida tayyorlangan sifatli zamonaviy oyoq protez-ortopediya buyumlari, jumladan, “Ijtimoiy himoya yagona reestri”ga kiritilgan nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda birinchi guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarni son protezi, boldir protezi va oyoq kamari ortoped apparatlari bilan bepul ta’minlash majburiyati Kambag‘allikni qisqartirish va topilishi asosli ekanini aniqlash maqsadida ularni Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limlarining yo‘llanmasiga asosan qaytadan tibbiy-ijtimoiy ekspertizaga yuborish tartibi bekor qilindi. Bu esa yurtdoshlarimizning ortiqcha sarsongarchiligiga barham berdi.

Oliygohlarda 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab “Maxsus pedagogika, defektologiya” magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha qabul to‘liq davlat granti asosida amalga oshirilyapti. Zero, ta’lim olish imkonini ko‘paytirish orqali imkoniyati cheklangan shaxslarning kelajagini yaxshilash mumkin. Sifatli ta’lim olish daromad topish imkonini kengaytiradi. Yashash uchun motivatsiyalarni yuzaga chiqaradi.

Shuningdek, nogironligi bo‘lganlarning jismoniy imkoniyatlarini oshirish maqsadida barcha turdagi sport ta’limi muassasalarida jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun sport bo‘limlarini bosqichma-bosqich tashkil etishga kirishildi. Bundan ko‘zlangan maqsad – iqtidorga ega jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarni tanlab olish, ularni sport turlariga yo‘naltirish, tayyorlash hamda oliy sport mahoratiga erishishini ta’minlovchi uzluksiz yagona kompleks tizim yaratishdir. Natijada mavjud, yangi ochilayotgan va tashkil etilishi rejalashtirilgan paralimpiya sport turlarini rivojlantirish hamda ommalashtirish, paralimpiya sport turlari bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yaratish hamda ilmiy tadqiqotlar olib borishga keng yo‘l ochildi.

2021/2022 o‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti hamda uning Nukus va Farg‘ona filiallarida, shuningdek, boshqa tegishli oliy ta’lim muassasalarida Paralimpiya kafedrasi ish boshladi, shuningdek, “Adaptiv sog‘lomlashtirish, jismoniy tarbiya va sport” magistratura mutaxassisligi bo‘yicha kadrlar tayyorlashga kirishildi.

Yurtimizda Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Adaptiv sport turlari assotsiatsiyasi tashkil qilingani ham nogironligi bo‘lgan insonlarning jamiyatga ijtimoiy moslashuvini ta’minlashga hissa qo‘shmoqda.

Eng muhimi, taqdir taqozosi bilan nogiron bo‘lib qolgan yurtdoshlarimizning hech biri xalqimizning, davlatimizning mehru e’tiboridan chetda emas. Shu bois jasorat va matonat sohiblari bo‘lgan bu insonlar hayotga yanada ruhlanib, o‘z mehnati, kuch va qobiliyati bilan jamiyatda o‘rnini topmoqda. Metin bardoshi va shukronalik fazilatlari bilan ko‘pchilikka ibrat bo‘lmoqda.

Shuhrat TESHAYEV,
Buxoro davlat tibbiyot instituti rektori,
tibbiyot fanlari doktori, professor.

Tovarlarni bojxona muhrlari ostida tashishga ruxsat berish guvohnomasini olish bo‘yicha axborot tizimi joriy etiladi.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 3-dekabr



SUV — INSONIYAT UCHUN HAYOT-MAMOT MASALASI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shu yil 11 – 22-noyabr kunlari Bokuda bo‘lib o‘tgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi hadli konvensiyasi Tomonlari konferensiyasining 29-sessiyasi (COP29) tadbirlarida ishtirok etishi va nutq so‘zlashi,unda muhim tashabbuslarni ilgari surishi bilan mamlakatimizning ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish,suvdan oqilona foydalanish masalalariga befarq emasligini yana bir karra namoyon etdi.

Umuman,iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq masalalar davlatimiz rahbarining doimiy e’tiborida. Prezidentimiz konferensiyadan biroz avval,7-noyabr kuni ham qishloq xo‘jaligida suv va energiya resurslaridan unumli foydalanish masalalari yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda ushbu mavzularga alohida to‘xtalib o‘tgandi.

Mavjud muammolar va ehtimoliy yechimlar haqida so‘z yuritar ekan,davlatimiz rahbari suv xo‘jaligida kelgusi 2025-yilni “Nasoslar samaradorligini oshirish yili” deya e’lon qildi. Bu global iqlim o‘zgarishi keskinlashgan,suv bilan bog‘liq transchegaraviy masalalar ko‘paygan va allaqachon suv manbalari bilan bog‘liq muammolar aholiga noqulayliklar keltirib chiqarayotgan bugungi kunda O‘zbekistonda suv resurslaridan oqilona foydalanishga eng muhim masalalardan biri sifatida qaralayotganining yorqin ifodasi bo‘ldi.

Nuqtai nazar

Bugungi kunning asosiy tahdidi

Ko‘pchilikka yaxshi ma’lum, Markaziy Osiyoda aholisi eng ko‘p bo‘lgan O‘zbekistonimiz va qo‘shnilarimiz suv muammosi yildan-yilga kuchayib borayotgan mintaqalar qatoridan o‘rin olgan. Ayniqsa, O‘zbekiston 2030-yilga qadar jiddiy suv taqchilligi bilan yuzlashuvchi 33 davlatdan biriga aylanishi ehtimoli borligi borasida bong urilyapti. Jahon bankining prognoz qilishicha, yana 25 yildan so‘ng bugungi kunda O‘zbekiston ehtiyojini qondirib turgan asosiy daryolar suvi 20 foizga kamayadi. Shu vaqtga borib, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida suvga bo‘lgan ehtiyoj esa aholi soni o‘sishi hisobiga 25 foizga oshishi kutilmoqda. Ekspertlar bunday pessimistik bashoratlar shundoq ham suv muammosidan aziyat chekayotgan O‘zbekiston qishloqlari aholisi ahvolini yanada qiyinlashtirishi va o‘z-o‘zidan mamlakat iqtisodiy o‘sishiga sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatishidan ogohlantirayotganini ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi.

Jiddiy suv taqchilligi muammosi sabablari faqat bizgagina bog‘liq emas. Foydalaniladigan suv manbalarining beshdan to‘rt qismi mamlakatimizdan tashqarida – qo‘shni davlatlar hududida shakllanadi. Ulardagi abadiy muzliklar esa shiddat bilan erib bormoqda. Bokudagi nufuzli konferensiyada Prezidentimiz iqlim o‘zgarishi bugungi kunning asosiy tahdidiga aylanib qolgani hamda bu tahdid geosiyosiy tanglikning kuchayishiga bevosita ta’sir qilayotganini bejiz tilga olmadi. Hududning asosiy suv manbalari hisoblanuvchi Amudaryo va Sirdaryodan o‘n yilliklar davomida noto‘g‘ri foydalanib kelingani bugungi kunda o‘z oqibatlarini namoyon qilyapti. O‘z vaqtida tegishli choralar ko‘rilmasa, bu mamlakatimiz hamda mintaqa qishloq xo‘jaligi va iqtisodiyotida jiddiy inqiroz kuzatilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Boz ustiga, ta’mirtalab irrigatsiya tizimlari millionlab dollar investitsiyalarni talab qiladi.

Mamlakatimizdagi asosiy irrigatsiya tizimlari 1960 – 1980-yillarda qurilgan. O‘tgan vaqt davomida ularning ba’zilari yaxshi ta’mirlanmagan, ayrimlari esa umuman e’tiborsiz tashlab qo‘yilgan. Mamlakatdagi ko‘pchilik irrigatsiya tizimlarining oxirgi marotaba ta’mirdan chiqqaniga 30 – 40 yildan oshgan. Hududdagi jami uzunligi 170 ming kilometrdan ortiq kanallarning taxminan 40 – 50 foizi qishloq xo‘jaligida foydalanish uchun yaroqsiz hisoblanadi. Ba’zi suv yo‘llari to‘g‘ri yo‘nalishga ega bo‘lmasa, boshqalari ekin maydonlariga haydalayotgan suv miqdorini nazorat qilish uchun yetarli jihozlar bilan ta’minlanmagan.

Xususan, mavjud kanallarning atigi 30 foizi beton bilan qoplangan, xolos. Bu esa o‘z-o‘zidan katta miqdordagi suvning isrof bo‘lishiga va hech bir samarasiz yer jinslariga singib ketishiga olib keladi. Ma’lumotlarga ko‘ra ushbu suv yo‘llarida yiliga 13 mlrd. kub metr suv yo‘qotiladi. Bu esa Andijon, Navoiy, Sirdaryo, Samarqand, Namangan kabi beshta yirik viloyatda bir yilda ishlatiladigan suv miqdoriga teng. Shu sababli davlatimiz rahbari kelgusi yilda betonlash ishlarining ma’lum bir qismi amalga oshirilishi uchun 800 mlrd. so‘m ajratilishini e’lon qildi.

Ammo muammo shuning o‘zi bilangina yechilib qolmaydi. Suvdan foydalanish va uni isrof qilmaslik borasida maqsadli o‘quvlar o‘tkazish, aholi, ayniqsa, yoshlarning suvdan foydalanish borasidagi madaniyatini oshirish, fermerlarda suvdan qanday foydalanish bo‘yicha zarur ko‘nikmalarni oshirish ham talab etiladi. Aks holda haddan ortiq suv isrofi yaqin o‘n yillikda keskin masalaligicha qolaveradi.

Biz suvni ishlatishda, yerlarni sug‘orishda tomchilatib sug‘orish kabi zamonaviy uslublardan yanada kengroq foydalanishimiz zarur. Hozirgi kunda aksariyat hollarda foydalanilayotgan an’anaviy uslubda 3-4 baravar ko‘p suv ishlatilyapti. Vaholanki, bu tuproq unumdorligi va hosildorlik uchun butkul teskari yo‘sinda ta’sir qilib, hosilning keskin kamayishi bilan birga yildan-yilga tuproq unumdorligining pasayishiga ham sabab bo‘ladi.

Tadqiqotlarga ko‘ra yerni haddan ortiq ko‘p sug‘orish qishloq xo‘jaligi maydonlarining taxminan 50 foiz samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, bu holat 50 ming gektardan ortiq maydonlarning tuzlanishiga sabab bo‘lgan. Ayrim hududlarda tuproqning sho‘rlanuvi allaqachon hosildorlikka o‘z ta’sirini ko‘rsata boshlagan. Misol uchun, Surxondaryoning ayrim hududlarida tarvuz va makkajo‘xori kabi ekinlar yerdagi sho‘rlik darajasining oshishi sababidan avvalgi yillardagi hosildorlikni bermayapti. Suvdan noto‘g‘ri foydalanish mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etuvchi paxta hosilining ham 15 – 20 foiz pastlashiga olib keldi. Bug‘doy hosili esa so‘nggi o‘n yil ichida 15 foizga kamaygan. Vaholanki, paxta va bug‘doy dalalari uchun O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida ishlatiladigan suvning qariyb 40 foizi sarflanadi.

Hosildorlikning kamayishi bilan bir vaqtda aholi sonining yuqori ko‘lamda o‘sishi bugungi kunda nega oziq-ovqat mahsulotlarining 20 foizini import qilib olayotganimiz sabablariga oydinlik



kiritadi. Biroq qishloq xo‘jaligida atigi 2 foiz holatdagina suvni tejovchi texnologiyalardan foydalanilayotgani va bu trendning ijobiy tomonga juda sekinlik bilan o‘zgarayotgani yaqin kelajakda mamlakat uchun yangi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Demak, biz sohada zamonaviy uslublardan foydalanishga tezroq o‘tishimiz lozim va shart.

Sirdaryo va Amudaryo O‘zbekiston suv ta’minotining qariyb 90 foizini tashkil qiladi. Ulardan hech birining bosh o‘zani O‘zbekiston hududida emas. Sirdaryo Qirg‘iziston tog‘laridan boshlansa, Amudaryoning yuqori oqimi Tojikistonga borib taqaladi. Ayni shu sabablar tufayli mintaqada eng ko‘p aholiga ega yurtimiz yillar davomida suv bilan bog‘liq turli muammolar bilan yuzlashib keladi. Qurg‘oqchilikning tobora ko‘proq kuzatilishi va yog‘ingarchilikning yildan-yilga kamayishi natijasida shu vaqtga qadar hududga kirib keluvchi suv miqdorida 40 foizga yaqin pasayishni boshdan kechirdik.

Shunga qaramay O‘zbekiston hududiy suv masalalarida hanuz eng faol ishtirokchi bo‘lib qolmoqda. Qo‘shni mamlakatlar bilan bu borada tez-tez yig‘ilishlar o‘tkazib turish tashabbusi ham O‘zbekiston Prezidentiga tegishli. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan boshlangan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchrashuvlari yo‘lga qo‘yilgani natijasida boshqa muammoli masalalar qatori suvdan birgalikda oqilona foydalanish borasida ahdlashuvlarga erishilayotgani barchamizni quvontiradi. Ertangi kunga ishonch bag‘ishlaydi.

Bir avlod ko‘z o‘ngida yuz bergan fojia

O‘tgan asrning 60-yillarida boshlangan cho‘llashuv natijasida Orolning 90 foizidan ortig‘i allaqachon qurigan va kimsasiz biyobonga aylanib ulgurgani ham suv muammosini yanada keskinlashtiruvchi omillardan bo‘ldi. 2000-yilga qadar dengizning janubiy qismi to‘laligicha cho‘lga aylandi. Qozog‘iston hududida joylashgan Orolning shimoliy qismi ma’lum miqdorda saqlab qolingan bo‘lsa-da, janubda dengizni qayta to‘ldirish uchun hatto imkon nishonalari ham qolmadi. 2021-yilda olingan sun’iy yo‘ldosh tasvirlariga ko‘ra Orol dengizi tuzdan iborat sahroga aylangan. Biroq Orol muammosi faqatgina suvning tugashi bilan baholanmaydi. Shuningdek, shamol tashiyotgan tuz mahalliy aholi orasida turli kasalliklarni kuchaytirayotgan bo‘lsa, qo‘shni hududlarda cho‘llashishning tobora kengayishiga zamin yaratmoqda. Yiliga 2-3 ming gektar maydon aynan Orol cho‘li ta’siridan cho‘llashib bormoqda. Qoraqalpog‘iston va Xorazmda hosildorlik allaqachon 30 foizga pastlagan.

Yaxshiyamki, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Orol dengizining qurigan tubida o‘rmonlashtirish loyihalari amalga oshirildi. Mintaqaga hayot qaytdi. Bir vaqtlar minglab gektar joylarni egallagan Mo‘ynoqdagi paxtazor va boshqa ekin yerlarning o‘rnini bugun cheksiz to‘qayzor egallagani xalqaro ekolog va mutaxassislarni hayratga soldi. Suv yo‘qligi natijasida voz kechilgan ekin maydonlarini bugun tabiat yana o‘z bag‘riga qaytarib olayotganiga guvoh bo‘lish mumkin. Daryo suvi kanallar orqali Orol dengizi atrofidagi ovul va tumanlarga yetib borishi uchun hukumat ko‘rgan choralar o‘z samarasini berdi. Kanal va ariqlar orqali bir necha yildan beri suvsiz qolayotgan ovul va tumanlarga bu yil suv yetib bordi. U yerdagi aholi yana bog‘dorchilik, dehqonchilik va chorva bilan kengroq shug‘ullana boshladi.

Bokudagi yig‘ilishda Prezident Shavkat Mirziyoyev yana bir bor Orol dengizi masalasiga jahon hamjamiyati e’tiborini qaratdi. *“Mintaqamiz misolida aytib o‘tmoqchimanki, bir avlod ko‘z o‘ngida Orol dengizining butunlay yo‘qolishi sayyoramiz miqyosidagi fojiaga aylandi. Shu o‘rinda biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida Daryo ekotizimlarining butunligi va ekologik xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha majburiyatlar to‘g‘risidagi deklaratsiyani ishlab chiqish tarafdorimiz”,* dedi davlatimiz rahbari.

O‘zbekiston Prezidenti daryolar ekologik xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha majburiyatlar haqida bejiz gapirmadi. Amudaryo va Sirdaryodan suv ichadigan Markaziy Osiyo davlatlarida suvni qanday taqsimlash, qishda yirik suv omborlarida ushlab turib, yozda berish borasida hamjihatlik zarur. Boz ustiga, Afg‘onistonda hukumat almashinuvi ortidan bu maydonga yangi iste’molchi qo‘shildi. Xalqaro transchegaraviy daryolar suvidan foydalanish borasidagi kelishuvlarga ko‘ra, Afg‘oniston ham undan foydalanish huquqiga ega. Biroq Qo‘shtepa kanali qurilishini davom ettirayotgan qo‘shnilarimizning kanalni betonlashtirish ishlarini olib borishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu ortiqcha suv isrofining oldini olishga xizmat qiladi.

Suvning 90 foizi qishloq xo‘jaligi ehtiyojlariga ishlatiladigan mamlakatimizda hukumat suv muammosidan yaxshi xabardor va vaziyatni yumshatish yo‘lida barcha zaruriy choralar ko‘rilyapti. Masalan, o‘tgan yili noyabrda davlatimiz rahbari 2024-yilni kanallarni betonlash bo‘yicha zarbdor yil, deb e’lon qilgan edi. Rasmiy hisob-kitoblarga ko‘ra bugun O‘zbekistonda 36 foiz suv isrof bo‘lmoqda. Mutaxassislar fikricha, bu suv tanqis bo‘lgan davlat uchun katta raqam. Suv yo‘qotilishi natijasida mamlakatimiz iqtisodiyoti har yili 5 mlrd. dollar boy berayotir. Shuning uchun minglab chaqirim kanallarni betonlash maqsad qilingan va bu yil bu borada sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda.

Albatta, qo‘shni mamlakatlarda ham bu boradagi ishlar jadallashtirilsa, nur ustiga a’lo nur bo‘lardi. Modomiki, aholi suv resurslaridan oqilona foydalanishni boshlamas, qishloq xo‘jaligida va yaroqsiz kanallarda suv isrofining oldi olinmas va qo‘shni mamlakatlar bilan transchegaraviy masalalar hal qilinmas ekan, tuproq sifati hamda hosildorlikning yomonlashuvi bilan boshlanuvchi muammolar ichki migratsiyaning keskin oshishi va ekologik xilmaxillikning halokatga yuz tutishi bilan yakunlanishi mumkin.

Iqlim o‘zgarishi sharoitida yangi voqelikka moslashish choralari faqat suv tejashdan iborat bo‘lib qolmasligi zarur. Masalan, sho‘r va qurg‘oqchilikka chidamli yangi ekin navlarini yaratish, ularni qishloq xo‘jaligida keng joriy etish borasidagi ishlar jadallashtirilishi ham muammoni yechish yo‘llaridan biridir. Yomg‘ir va qor suvlaridan oqilona foydalanish texnologiyalarini joriy qilish ham foydadan xoli emas. Gap shundaki, tog‘lardagi muzlarning jadal erishi va qisqa vaqtda ko‘p miqdorda yomg‘ir yog‘ishi natijasida mintaqada erta bahorda sel kelishi holatlari ko‘paygan. Bu sellar oldingi yillardagiga qaraganda tez-tez takrorlanmoqda. Mamlakatimiz o‘z oldiga ushbu sel suvlaridan ham samarali foydalanishni maqsad qilgan. Buning uchun 10 ta suv ombori qurish rejalashtirilayotgan bo‘lib, erta bahorda yig‘ilgan suvlar yoz davomida ziroatchilikda ishlatilishi va shu bilan suvga bo‘lgan ehtiyojning bir qismi qondirilishi mumkin.

Lekin bu kabi choralarning barchasiga katta sarmoya kerak. Jahon bankining taxminiy hisob-kitobiga ko‘ra iqlim o‘zgarishining bunday keskin oqibatlariga moslashish uchun O‘zbekistonga 2060-yilga qadar 46 mlrd.dan 60 mlrd. dollarga qadar mablag‘ zarur bo‘ladi. Dunyoda o‘z o‘rni va ovoziga ega bo‘lib borayotgan, xavfsizlik va barqarorlik hukm surayotgan O‘zbekistonimizga investorlarning ishonchi yuqori. Albatta, suv uchun, ekologiya uchun pul ayalmaydi.

Shu o‘rinda Bokuda o‘tgan anjumanda so‘zga chiqqan BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishdan iqtibos keltiraylik: *“Yo‘qotadigan vaqt qolmadi. Iqlim borasida bir narsa deyish mumkin – dunyo to‘lov to‘lashi kerak, aks holda, bu qarz insoniyat gardaniga tushadi. Hurmatli mehmonlar, bunday murakkab vaziyatda siz va sizning hukumatlaringiz faqat haqiqat izidan borishi lozim. Iqlimga pul ajratish – bu xayriya emas, balki investitsiya. Iqlim borasida chora ko‘rish – bu ixtiyoriy emas, balki hayot-mamot masalasi”.*

O‘zbekistonda suvni tejash, uni asrab-avaylash yo‘lidagi ilmiy loyihalar yetarlicha moliyalashtirilayotgani haqiqat. Yoshlar ham ilm-fanga qiziqayotgani, zaruriy ilmiy yechimlar ishlab chiqilayotgani e’tiborga molik. Biz barcha sohada katta-katta yutuqlarga, albatta, kelajak egalari bo‘lgan yoshlarni ilm-fanga, bilim olishga qiziqtirish orqali erishamiz.

Muhammad Ali SAIDOV,
Toshkent davlat agrar universiteti professori,
iqtisodiyot fanlari doktori.



«BIZNING YERIMIZ. BIZNING KELAJAGIMIZ»

O‘zbekiston Respublikasi ekologiya,atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri A. Abduhakimov boshchiligidagi mamlakatimiz delegatsiyasi Saudiya Arabistonida o‘tayotgan BMTning Cho‘llanishga qarshi kurash to‘g‘risidagi konvensiyasi (UNCCD) Tomonlar konferensiyasi 16-sessiyasining (COP16) ochilish marosimida ishtirok etdi.

Tadbir

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi xabariga ko‘ra delegatsiya tarkibida O‘zbekiston suv xo‘jaligi vaziri Sh. Hamroyev, O‘zbekistonning Saudiya Arabistonidagi elchisi N. Turg‘unov, Qishloq xo‘jaligi vazirligi va respublikaning boshqa idoralari vakillari bor.

“Bizning yerimiz. Bizning kelajagimiz” shiori ostida o‘tkazilayotgan ushbu tadbirda konvensiyaning 197 ta ishtirokchisi (196 ta davlat va Yevropa Ittifoqi) vakillari qatnashyapti.

13-dekabrga qadar davom etadigan mazkur konferensiyada mavzu doirasidagi global masalalar muhokama qilinmoqda.

“Xalq so‘zi”.

YANGILIKLAR *xabarlar*

TAFSILOTLAR

O‘zbek olimasi – Butunjahon fanlar akademiyasining a’zosi!

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Shahlo Turdiqulova Butunjahon fanlar akademiyasi (TWAS) a’zosi etib saylandi. Bu O‘zbekiston ilmiy salohiyatining yuksakligi va jahon ilm-faniga qo‘shayotgan hissasi ortib borayotganining yana bir namoyoni bo‘ldi.



Butunjahon fanlar akademiyasi prezidenti, professor Quarraysha Abdul Karim Shahlo Turdiqulovani qutlar ekan, olima joriy yilgi saylovlarda MDH va Markaziy Osiyodan yagona vakil bo‘lganini ta’kidladi. Va ayni chog‘da u mamlakatimiz tarixida bu nufuzli akademiyaga saylangan yettinchi akademik olim sifatida e’tirof etildi.

O‘tgan saylovda jami 74 nafar olim saylanib, TWAS akademiklarining umumiy soni 1 444 nafarga yetdi. Akademiklikka diplom topshirish marosimi kelgusi yil boshida akademiya bosh qarorgohida o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan.

Hamkorlik va o‘zaro anglashuv memorandumi

Mamlakatimizda boshlangan “Fuqarolik jamiyati haftaligi” istiqbolli tashabbuslarni ishlab chiqish,shuningdek,shaffoflik va inklyuzivlikni ta’minlash hamda keyingi qadamlarni belgilab olish bo‘yicha ochiq platforma bo‘lib xizmat qiladi.

Haftalik doirasida o‘tkazilgan tadbirlar davomida “Yuksalish” umummilliy harakati hamda “Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha yoshlar guruhi” tashkiloti (Tojikiston) o‘rtasida Hamkorlik va o‘zaro anglashuv memorandumi imzolandi.

Memorandum O‘zbekiston va Tojikistonda ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarni kompleks rivojlantirish, qo‘shma loyihalar va tashabbuslarni amalga oshirish orqali ko‘maklashishga qaratilgan. Ushbu qadam fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va hamkorlikni mustahkamlash yo‘lida muhim hissa hisoblanadi.

Asal ko‘rgazmasi

Kecha poytaxtimizda “Asal bayrami” ko‘rgazmasining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda sohada amalga oshirilayotgan ko‘plab chora-tadbirlar natijasida tarmoq yildan-yilga rivojlanib borayotgani,bu borada ijobiy natijalarga erishilayotgani ta’kidlandi.



Shuningdek, har yili o‘tkazilayotgan “Asal bayrami” tadbiri o‘zaro tajriba almashish, sohaga yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda aholiga sifatli asal mahsulotlarini arzon narxlarda yetkazib berishga imkon yaratayotgani alohida e’tirof qilindi.

10-dekabrga qadar davom etadigan “Asal bayrami”da viloyatlardan 350 dan ortiq asal yetishtiruvchilar hamda qo‘shni davlatlardan soha vakillari qatnashmoqda.

“Xamsa”ning noyob qo‘lyozmasi Londondan topildi

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazidan ma’lum qilinishicha,Buyuk Britaniyaga borgan O‘zbekiston delegatsiyasi London shahridagi “Christie’s” va “Sotheby’s” auksion savdo uylarida bo‘ldi.

Tashrif davomida “Christie’s” auksion savdo uyi bo‘lim boshlig‘i Sara Plambli tashkilotda mavjud bir qator nodir eksponatlar, tasviriy san’at asarlari haqida ma’lumot berdi.

Jumladan, u auksion uyida saqlanayotgan ayrim qo‘lyozmalarni mehmonlarga ko‘rsatdi. Ulardan biri – Sharq mumtoz adabiyoti vakili Hoji Kirmoniy tomonidan 1524-yilda ko‘chirilgan “Xamsa” asarining qo‘lyozmasi, yana biri Shamsiddin Muhammad Assor tomonidan 1494-yilda Tabrizda ko‘chirilgan “Shams va Mushtariy” dostoni.

Har ikkala qo‘lyozma temuriylar davri kitobat san’ati namunasidir.

Rahim ShERQULOV
(“Xalq so‘zi”) tayyorladi.

Islomobod shahrida uyushtirilgan “Charity Bazar” ko‘rgazmasida O‘zbekiston pavilyoni tashkil etildi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan.Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 542.14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan.Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 21.50 Topshirildi — 01.05 1 2 3 4 5 6